

## YOSHLAR ONGIGA MILLIY G‘OYANI SINGDIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR

*Ajiniyoz NDPI Talabasi*

**Muhtillayeva Naubaxar**

*Milliy goya manaviyat asoslari va huquq talim yonalishi 4kurs*

*Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. "*

**Shavkat Mirziyoyev"**

Milliy g‘oya — muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi. Milliy g‘oya o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalq, millat takdiriga daxldor bo‘lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo‘lgan vazifalar va mo‘ljallarni ham aks ettiradi. Ajdodlarimiz jamiyatning barcha bosqichlarida jamiyat a‘zolari tafakkuriga ezgulikka va bunyodkorlikka chorlovchi g‘oyalarni singdirib kelganlar. Masalan, zardushtiylilik dinining “Avesto” kitobidagi g‘oyaviy konsepsiya – “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal” tamoyili buning yorqin dalilidir. Milliy g‘oya o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalq, millat taqdiriga daxldor, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo‘lgan vazifalar va mo‘ljallarni ham aks ettiradi. Globalizatsiya sharoitida milliy ta’lim-tarbiyaning texnologik xususiyatlarini ham e’tibordan qoldirmaslik yani: Munosib turmush kechirishga bo‘lgan intilishning unga erishishga olib keluvchi aniq maqsad, fikrlash tarzi bilan uyg‘unligi. Bugungi iqtisodiy islohotlarning aniq samarasi har bir oila, shaxs manfaatiga mutanosibligini ta’minlashning milliy g‘oyaga bevosita bog‘liq jihatlarni har bir fuqaroga yetkazish. Barcha yaxshiliklarning boshlanishi tinimsiz izlanish, ilm o‘rganish, mehnat ekanligi bizlarga ajdodlarimizdan qolgan meros hisoblanadi. Milliy g‘oya har bir fuqaroga jamiyat normalari, u ishlab chiqqan qonunlar doirasida yashashga, o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani birovlarga ham ravo ko‘rmay yashashga qaratadi. Milliy birlikka, hamjihatlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Tarbiyachilarning o‘ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatdagi yoshlar qatlamining milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlarga munosabati, uning yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga qanday ta’sir etayotganligiga hamda amaliy faoliyatlariga qanday tarzda tayanishlariga bevosita bog‘liq. Milliy g‘oyani targ‘ibot qilishda innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb – innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. Innovatsion jarayon – bu ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar asosida yuzaga kelgan yangiliklar, bu yangiliklarning shu soha vakillari tomonidan o‘zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o‘zgarib boruvchi yaxlitligidir. Innovatsion faoliyat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Shu boisdan, innovatsiyalar doimiy ravishda ijtimoiysiyosiy hayotga yangiliklar olib kirish orqali mafkuraviy qarashlar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mafkuraviy g‘oyani o‘z ongiga

singdirgan inson ulug' dir. Chunki bola ota-onasidan meros qilib olgan va dunyoga aytgan birinchi so'zida milliy g'oya va mehr-muruvvat, insonparvarlik ifoda qilinadi. O'z xalqining milliy g'oyasiga, an'analarga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini butun jahon nazdida tenglardan, o'zligini anglaganlardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatani jonkuyarlarini tarbiyalashi mumkin emas. O'zbekiston xalqi oldida turgan milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi "Milliy– tiklanishdan – milliy yuksalish sari" ishi o'zining ta'sirchan, amaliy vositasiga ega bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.A.Abatov J.Utegenova M.Eshimov Milliy ideyani ugut nasihatlawda jana pedagogik texnologiyalar.(Oqiw qollanba) Nokis 2022

2. Abu Nasr Farabiy Fozil odamlar shahri Ozbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti. Davlat ilimiy nashriyoti 2004